

DISLEKSIYA TUSHUNCHASI, UNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA NEYROLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Soliyeva Moxigul Madaminxon qizi,

"Ideal ta'lim-tarbiya" xususiy maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada disleksiya tushunchasining mazmun-mohiyati, uning kelib chiqish omillari hamda namoyon bo'lish shakllari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, disleksiyaning psixologik, pedagogik va neyrolingvistik xususiyatlari yoritilib, bu holatga ega bolalarning o'qish, yozish, nutqni idrok etish va axborotni qayta ishlash jarayonlaridagi o'ziga xos jihatlari ochib beriladi. Maqolada disleksiyaning nafaqat o'quv faoliyatiga, balki bolaning shaxsiy rivojlanishi, motivatsiyasi va ijtimoiy moslashuviga ham ta'sir ko'rsatishi asoslab beriladi. Muammo doirasida inkluziv ta'lim sharoitida disleksiyasi bor o'quvchilar bilan ishlashning pedagogik ahamiyati, ularga mos metodik yondashuvlar va individual yordam ko'rsatish zarurati ham ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari disleksiyaning erta aniqlash, ta'lim jarayonini moslashtirish va korreksion-pedagogik ishlarni samarali tashkil etishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: disleksiya, o'qish buzilishi, psixologik xususiyatlar, pedagogik yondashuv, neyrolingvistika, nutqiy rivojlanish, fonematik idrok, inkluziv ta'lim, diferensial yondashuv, korreksion ish.

Аннотация. В данной статье раскрывается сущность понятия дислексии, анализируются факторы её происхождения и основные формы проявления. Особое внимание уделяется психолого-педагогическим и нейролингвистическим особенностям дислексии, а также специфике процессов чтения, письма, восприятия речи и переработки информации у детей с данным нарушением. В статье обосновывается, что дислексия оказывает влияние не только на учебную деятельность, но и на личностное развитие ребёнка, его мотивацию и социальную адаптацию. В рамках рассматриваемой проблемы подчеркивается педагогическая значимость организации обучения детей с дислексией в условиях инклюзивного образования, необходимость применения адаптированных методик и индивидуальной поддержки. Результаты исследования могут служить теоретической основой для раннего выявления дислексии, адаптации образовательного процесса и эффективной организации коррекционно-педагогической работы.

Ключевые слова: дислексия, нарушение чтения, психологические особенности, педагогический подход, нейролингвистика, речевое развитие, фонематическое восприятие, инклюзивное образование, дифференцированный подход, коррекционная работа.

Abstract. This article examines the essence of the concept of dyslexia, its underlying factors, and its main forms of manifestation. Particular attention is paid to the psychological, pedagogical, and neurolinguistic characteristics of dyslexia, as well as to the specific features of reading, writing, speech perception, and information processing in children with this condition. The article argues that dyslexia affects not only academic performance but also the child's personal development, motivation, and social adaptation. Within this framework, special emphasis is placed on the pedagogical importance of working with students with dyslexia in inclusive educational settings, the need for adapted teaching methods, and the provision of individualized support. The findings of the study may serve as a theoretical basis for the early identification of dyslexia, the adaptation of the educational process, and the effective organization of corrective and pedagogical support.

Keywords: dyslexia, reading disorder, psychological characteristics, pedagogical approach, neurolinguistics, speech development, phonemic perception, inclusive education, differentiated approach, corrective support.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish, ayniqsa, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar bilan ishlash masalasi

ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, inkluziv ta'lim konsepsiyasi nafaqat ijtimoiy adolat tamoyillarini ta'minlash, balki har bir bolaning to'laqonli rivojlanishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv doirasida o'qish va yozish jarayonida muayyan qiyinchiliklarga duch keladigan o'quvchilar, xususan, disleksiyasi bor bolalar bilan ishlash muammosi dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Disleksiya — bu intellektual rivojlanish darajasi me'yorida bo'lgan holda o'qish jarayonining buzilishi bilan tavsiflanadigan murakkab neyropsixologik holat bo'lib, u asosan fonematik idrokning yetarli darajada shakllanmaganligi, til birliklarini qayta ishlashdagi qiyinchiliklar hamda yozma nutq faoliyatidagi kamchiliklar bilan bog'liqdir. Ushbu holat bolaning o'quv faoliyatida muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga, o'ziga bo'lgan ishonchining pasayishiga va ijtimoiy moslashuvining qiyinlashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli disleksiyani erta aniqlash, uning psixologik va neyrolingvistik mexanizmlarini chuqur o'rganish hamda samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, disleksiya faqat o'qishdagi texnik xatolar bilan cheklanib qolmaydi, balki u nutqni idrok etish, fonematik tahlil va sintez qilish, xotira jarayonlari, diqqat barqarorligi hamda informatsiyani qayta ishlash tezligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois mazkur muammoni o'rganishda psixologiya, pedagogika, neyrolingvistika va logopediya fanlarining integratsiyasi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ayniqsa, neyrolingvistik yondashuv disleksiyaning miya faoliyati bilan bog'liq mexanizmlarini tushuntirish orqali o'qish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarning ilmiy asoslarini ochib beradi.

Bugungi kunda ona tili ta'limida disleksiyasi bor o'quvchilar bilan ishlash metodikasi yetarli darajada takomillashmagan bo'lib, ko'plab hollarda umumiy o'quv dasturlari bunday o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilmagan holda qo'llanilmoqda. Bu esa ularning o'quv jarayoniga to'laqonli jalb etilishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli differensial yondashuv asosida ta'limni tashkil etish, o'quv materiallarini individuallashtirish va maxsus pedagogik usullarni qo'llash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada disleksiya tushunchasining mohiyati, uning psixologik-pedagogik va neyrolingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi hamda disleksiyasi bor o'quvchilar bilan ishlashning nazariy asoslari yoritiladi. Tadqiqot natijalari inkluziv ta'lim sharoitida samarali pedagogik faoliyatni tashkil etish, o'quvchilarning o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Disleksiya muammosi jahon ilmiy adabiyotlarida keng o'rganilgan bo'lib, u ko'p tarmoqli yondashuv — psixologik, pedagogik, neyropsixologik va lingvistik tadqiqotlar kesishgan nuqtada shakllangan kompleks

fenomen sifatida qaraladi. Disleksiyani ilmiy asosda o'rganish XIX asr oxiri va XX asr boshlarida boshlangan bo'lib, dastlab u "so'z ko'rish ko'rliqi" (word blindness) sifatida tavsiflangan. Keyinchalik mazkur hodisa chuqurroq tahlil qilinib, uning til tizimi va miya faoliyati bilan bog'liq murakkab buzilish ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda disleksiyaning asosiy sabablari sifatida fonologik jarayonlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi alohida ta'kidlanadi. Xususan, Stanislas Dehaene o'z tadqiqotlarida o'qish jarayonining neyrobiologik asoslarini tahlil qilib, disleksiya bilan bog'liq muammolar miyaning chap yarim sharidagi tilga oid zonalar faoliyatidagi o'ziga xosliklar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Uning fikricha, o'qish — bu inson miyasida sun'iy ravishda shakllangan jarayon bo'lib, undagi har qanday buzilish fonologik dekodlash mexanizmlarining izdan chiqishi bilan bog'liqdir.

Shuningdek, Uta Frith tomonidan ilgari surilgan nazariy model disleksiyani uch darajada — biologik, kognitiv va xulqiy darajada o'rganishni taklif etadi. Bu modelga ko'ra, disleksiya faqat tashqi namoyon (o'qishdagi xatolar) bilan emas, balki ichki kognitiv jarayonlar — fonematik tahlil, xotira va axborotni qayta ishlash tezligi bilan bog'liq holda tushuntiriladi. Bu yondashuv pedagogik amaliyotda muammoni chuqurroq anglash va mos metodikalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik nuqtai nazardan disleksiya bilan bog'liq tadqiqotlarda Sally Shaywitz alohida o'rin tutadi. U disleksiyani "yashirin nogironlik" sifatida ta'riflab, intellektual salohiyat saqlangan holda o'qish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni tizimli tahlil qiladi. Shaywitzning tadqiqotlari o'qishdagi muammolar fonologik ishlov berishdagi nuqsonlar bilan bevosita bog'liq ekanligini empirik dalillar orqali isbotlaydi va bu esa o'quvchilar bilan ishlashda individual yondashuv zarurligini asoslaydi.

Pedagogik adabiyotlarda disleksiya bilan ishlash metodikasi ko'proq diferensial va multisensor yondashuvlar asosida yoritiladi. Xususan, Samuel Orton va Anna Gillingham tomonidan ishlab chiqilgan Orton–Gillingham metodikasi disleksiyasi bor o'quvchilar bilan ishlashda eng samarali yondashuvlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu metodika ko'rish, eshitish va harakat (kinestetik) kanallarini birgalikda qo'llash orqali o'qish va yozishni o'rgatishga asoslangan bo'lib, u individual o'quv ehtiyojlariga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi.

Neyrolingvistik tadqiqotlarda esa o'qish jarayonining miya faoliyati bilan bog'liqligi chuqur o'rganilgan. Bu borada Norman Geschwind va uning izdoshlari tomonidan olib borilgan izlanishlar disleksiyaning nevrologik asoslarini tushuntirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning tadqiqotlarida tilni qayta ishlash bilan bog'liq miya tuzilmalari o'rtasidagi aloqalarning buzilishi o'qish qiyinchiliklarining asosiy sababi sifatida ko'rsatiladi.

O'zbekiston va MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham disleksiya va nutq buzilishlari masalasi ma'lum darajada o'rganilgan. Logopediya va maxsus pedagogika yo'nalishidagi tadqiqotlarda o'qish va yozish buzilishlari, jumladan, disleksiya va

disgrafiya holatlari psixolingvistik va didaktik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Biroq ona tili darslarida disleksiyasi bor o'quvchilar bilan differensial ishlash metodikasini kompleks tarzda ishlab chiqish hali ham dolzarb ilmiy muammo sifatida qolmoqda.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, disleksiya ko'p omilli va murakkab tabiatga ega bo'lib, uni samarali hal etish uchun integrativ yondashuv zarur. Xususan, psixologik diagnostika, neyrolingvistik tushuntirish va pedagogik metodikalarni uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, inkluziv ta'lim sharoitida disleksiyasi bor o'quvchilar bilan ishlashda differensial yondashuvni qo'llash ilmiy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan samarali yo'nalish sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot inkluziv ta'lim sharoitida ona tili darslarida disleksiyasi bor o'quvchilar bilan differensial ishlash samaradorligini aniqlashga qaratilgan tajriba-sinov ishlari asosida tashkil etildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, differensial yondashuv, inkluziv pedagogika, psixolingvistik tahlil hamda korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar uyg'un qo'llanildi. Nazariy metodlar sifatida mavzuga oid psixologik, pedagogik, logopedik va neyrolingvistik adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, qiyosiy o'rganish ishlari amalga oshirildi. Empirik metodlar sifatida pedagogik kuzatish, diagnostik topshiriqlar, o'qish va yozuvdagi xatolarni tahlil qilish, suhbat, amaliy mashqlar, tajriba-sinov ishlari hamda natijalarni miqdoriy va sifatiy qayta ishlash usullaridan foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlari Farg'ona viloyati, Farg'ona shahridagi 2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 1–4-sinflarida tahsil olayotgan 23 nafar disleksiyasi bor o'quvchi ishtirokida olib borildi. Tadqiqot bir necha bosqichda tashkil etildi: dastlab aniqlovchi bosqichda o'quvchilarning o'qish tezligi, o'qish aniqligi, bo'g'inlab o'qish holati, matnni tushunishi, fonematik farqlashi, harf-tovush mosligini idrok etishi hamda yozuvdagi tipik xatolari o'rganildi; shakllantiruvchi bosqichda maxsus metodika asosida differensial mashq va topshiriqlar tizimi joriy qilindi; yakuniy bosqichda esa o'quvchilardagi o'zgarishlar qayta diagnostika asosida baholandi. Natijalarni baholashda o'quvchilarning boshlang'ich va yakuniy ko'rsatkichlari o'zaro qiyoslandi.

Taklif etilayotgan metodika:

“Bosqichli differensial-korreksion metodika”

Mazkur metodika disleksiyasi bor boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ona tili darslarida ishlash uchun taklif etiladi. Metodikaning asosiy maqsadi o'quvchilarda o'qish va yozish bilan bog'liq qiyinchiliklarni kamaytirish, fonematik idrokni rivojlantirish, harf-tovush munosabatini mustahkamlash, bo'g'inlab va ongli o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, o'quv materialini individual imkoniyatlarga moslashtirishdan iborat.

Ushbu metodika 4 bosqichdan iborat:

1-bosqich – diagnostik-aniqlovchi bosqich. Bu bosqichda har bir o‘quvchining disleksik qiyinchiliklari turi va darajasi aniqlanadi. O‘qishdagi almashish, tushirib qoldirish, qo‘shib o‘qish, bo‘g‘inlarni noto‘g‘ri birlashtirish, matn mazmunini anglashdagi qiyinchiliklar hamda yozuvdagi xatolar qayd etiladi.

2-bosqich – fonematik va perseptiv tayyorlov bosqichi. Bu bosqichda tovushlarni farqlash, eshitish orqali ajratish, tovush-harf mosligini anglash, bo‘g‘in tuzilishini sezish, vizual idrok va eslab qolishni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar qo‘llanadi. Masalan, tovushni topish, ortiqcha tovushni ajratish, bo‘g‘inlardan so‘z tuzish, harf kartochkalari bilan ishlash kabi topshiriqlar beriladi.

3-bosqich – differensial o‘qish-yozish mashqlari bosqichi. Bunda o‘quvchilarning imkoniyatlariga qarab topshiriqlar darajalarga ajratiladi: kuchsiz o‘quvchilar uchun sodda bo‘g‘inli va qisqa so‘zlar, o‘rta darajadagilar uchun gap va kichik matnlar, nisbatan yaxshi o‘zlashtirayotganlar uchun mazmuniy tahlilga yo‘naltirilgan topshiriqlar beriladi. Topshiriqlar multisensor yondashuv asosida, ya‘ni ko‘rish, eshitish, aytish va yozish faoliyatlarini uyg‘unlashtirgan holda tashkil etiladi.

4-bosqich – mustahkamlash va monitoring bosqichi. Bu bosqichda o‘quvchilarning o‘zlashtirish dinamikasi kuzatiladi, takroriy mashqlar, qisqa nazorat topshiriqlari, matn bilan ishlash, qayta hikoyalash va yozma ifoda mashqlari orqali natijalar mustahkamlanadi. Har bir o‘quvchi uchun individual rivojlanish kartasi yuritiladi.

Metodikaning samaradorligi quyidagi mezonlar asosida baholanadi: o‘qish tezligining oshishi, xatolar sonining kamayishi, harf-tovush munosabatini to‘g‘ri anglash, matn mazmunini tushunish darajasining yaxshilanishi, yozuvdagi barqarorlikning ortishi va o‘quvchining darsdagi faolligi. Mazkur metodika boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarini inklyuziv yondashuv asosida tashkil etishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, disleksiyasi bor o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda korreksion-pedagogik yordam ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Tajriba-sinov ishlari davomida Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahridagi 2-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabining 1–4-sinflarida tahsil olayotgan 23 nafar disleksiyasi bor o‘quvchi bilan olib borilgan ishlar natijalari bosqichma-bosqich tahlil qilindi va ularning o‘qish hamda yozuv ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlar aniqlab borildi. Dastlabki aniqlovchi bosqich natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning aksariyatida o‘qish tezligining pastligi, bo‘g‘inlab o‘qishga haddan tashqari bog‘lanib qolish, harf va tovushlarni chalkashtirish, so‘zlarni tushirib qoldirish yoki ortiqcha qo‘shib o‘qish holatlari keng tarqalgan bo‘lib, matn mazmunini anglash darajasi ham yetarli emasligi kuzatildi. Yozma nutqda esa harf tushirib qoldirish, o‘rin almashtirish, qo‘shib yozish, fonetik xatolar va imlo buzilishlari ustunlik qilgani aniqlandi. Ushbu holatlar o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytirib, dars jarayonida passivlikni yuzaga keltirayotganligi ham kuzatildi.

Shakllantiruvchi bosqichda taklif etilgan bosqichli differensial-korreksion metodika asosida o'qitish jarayoni tashkil etildi. Mashg'ulotlar davomida fonematik idrokni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar, bo'g'in va tovush ustida ishlash, multisensor yondashuv asosidagi topshiriqlar, shuningdek, o'quvchilarning individual imkoniyatlariga mos differensial mashqlar tizimli ravishda qo'llanildi. Natijada o'quvchilarda o'qish jarayoniga nisbatan qiziqish ortib, faol ishtirok etish holatlari ko'paydi, ayniqsa, ko'rish, eshitish va kinestetik faoliyatni uyg'unlashtirish orqali o'rganish samaradorligi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. O'quvchilar asta-sekin harf-tovush munosabatini aniqroq anglay boshladi, bo'g'inlab o'qishdan so'z va gap darajasida o'qishga o'tish jarayoni tezlashdi, bu esa ularning o'qish tezligi va aniqligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Yakuniy nazorat bosqichida olingan natijalar boshlang'ich ko'rsatkichlar bilan qiyosiy tahlil qilinganda, sezilarli ijobiy o'zgarishlar aniqlandi. Xususan, o'quvchilarning o'qish tezligi o'rtacha 25–30 foizga oshgani, o'qishdagi xatolar soni esa deyarli ikki barobarga kamaygani kuzatildi. Matn mazmunini tushunish darajasi sezilarli yaxshilanib, dastlab mazmunni qisman anglay olgan o'quvchilar soni kamayib, mustaqil va ongli tushunishga ega o'quvchilar ulushi ortdi. Yozma nutqda ham ijobiy siljishlar kuzatilib, harf va bo'g'inlarni tushirib qoldirish, chalkashtirish holatlari kamaydi, imlo jihatdan nisbatan to'g'ri yozish ko'nikmalari shakllana boshladi. Eng muhimi, o'quvchilarning darsdagi faolligi oshib, ular mustaqil ishlashga, topshiriqlarni bajarishga nisbatan ishonch bilan yondashadigan bo'ldi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, differensial yondashuv asosida tashkil etilgan korreksion-pedagogik ishlar nafaqat o'qish va yozuvdagi kamchiliklarni bartaraf etishda, balki o'quvchilarning umumiy o'quv motivatsiyasini oshirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qildi. Ayniqsa, individual yondashuv asosida topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish o'quvchilarning psixologik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularda muvaffaqiyatga erishish hissini shakllantirdi. Shu tariqa, tajriba-sinov natijalari taklif etilgan metodikaning samaradorligini tasdiqlab, inkluziv ta'lim sharoitida disleksiyasi bor o'quvchilar bilan ishlashda differensial yondashuvning ilmiy va amaliy jihatdan asosli ekanligini ko'rsatdi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot doirasida disleksiya tushunchasining psixologik-pedagogik va neyrolingvistik mohiyati chuqur tahlil qilinib, inkluziv ta'lim sharoitida ona tili darslarida disleksiyasi bor o'quvchilar bilan samarali ishlashning ilmiy asoslari ishlab chiqildi. O'rganishlar natijasida disleksiya faqat o'qishdagi texnik xatolar yig'indisi emas, balki fonematik idrok, nutqni qayta ishlash, xotira va diqqat jarayonlari bilan bog'liq murakkab tizimli buzilish ekani aniqlandi. Bu esa mazkur muammoni hal etishda integrativ yondashuvni, ya'ni psixologik, pedagogik va neyrolingvistik jihatlarni uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatdi.

Tajriba-sinov ishlari asosida ishlab chiqilgan bosqichli differensial-korreksion metodika disleksiyasi bor o'quvchilarning o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda

samarali vosita ekanligi isbotlandi. Xususan, o'qish tezligi va aniqligining oshishi, xatolar sonining kamayishi, matnni anglash darajasining yaxshilanishi hamda yozma nutqdagi barqarorlikning ortishi kuzatildi. Shu bilan birga, o'quvchilarning o'quv faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasi kuchayib, ularning dars jarayonidagi faolligi sezilarli darajada oshdi. Bu holat differensial yondashuvning nafaqat didaktik, balki psixologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, inkluziv ta'lim sharoitida disleksiyasi bor o'quvchilar bilan ishlashda o'quv materialini individuallashtirish, multisensor yondashuvdan foydalanish, bosqichma-bosqich mashqlar tizimini qo'llash hamda muntazam diagnostika va monitoring olib borish zaruriy shart hisoblanadi. Shuningdek, o'qituvchining maxsus metodik tayyorgarligi, ota-ona va mutaxassislar bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi ham muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Umuman olganda, tadqiqotda ilgari surilgan nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar inkluziv ta'lim tizimida ona tili darslarini takomillashtirishga, disleksiyasi bor o'quvchilarning o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlashga hamda ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur metodik yondashuvni ta'lim amaliyotiga joriy etish kelgusida o'qish savodxonligini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashda muhim natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dehaene S. Reading in the Brain: The New Science of How We Read. — New York: Viking, 2009. — 384 p.
2. Shaywitz S. E. Overcoming Dyslexia: A New and Complete Science-Based Program for Reading Problems at Any Level. — New York: Alfred A. Knopf, 2003. — 432 p.
3. Frith U. Beneath the Surface of Developmental Dyslexia // Surface Dyslexia: Neuropsychological and Cognitive Studies of Phonological Reading. — London: Lawrence Erlbaum Associates, 1985. — P. 301–330.
4. Snowling M. J. Dyslexia. — 2nd ed. — Oxford: Blackwell Publishing, 2000. — 272 p.
5. Lyon G. R., Shaywitz S. E., Shaywitz B. A. A definition of dyslexia // Annals of Dyslexia. — 2003. — Vol. 53. — P. 1–14.
6. Orton S. T. Reading, Writing, and Speech Problems in Children. — New York: W.W. Norton & Company, 1937. — 372 p.
7. Gillingham A., Stillman B. Remedial Training for Children with Specific Disability in Reading, Spelling, and Penmanship. — Cambridge: Educators Publishing Service, 1997. — 340 p.
8. Geschwind N. Selected Papers on Language and the Brain. — Dordrecht: D. Reidel Publishing Company, 1974. — 512 p.
9. Luria A. R. Основы нейропсихологии. — М.: Издательство МГУ, 1973. — 374 с.
10. Выготский Л. С. Мышление и речь. — М.: Лабиринт, 1999. — 352 с.
11. Леонтьев А. А. Психолингвистика. — М.: Смысл, 2003. — 287 с.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Inkluziv ta'limni rivojlantirish to'g'risida qaror. — Toshkent, 2020.
13. Abdurahmonov G., Nurmonov A. Umumiy tilshunoslik asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2012. — 256 b.
14. Qodirova F., Yuldasheva D. Maxsus pedagogika. — Toshkent: Fan, 2015. — 240 b.
15. Karimova V. M. Psixologiya. — Toshkent: O'zbekiston, 2018. — 320 b.